



Qarshi Davlat Universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya o'qitish metodikasi yo`nalishi

II- kurs talabasi
Hasanova Shohidaning
Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi fanidan

*“Amerika qo'shma shtatlari”
mavzusida yozgan*

KURS ISHI



AMERIKA QO'SHMA SHITATLARI

R E J A :

Kirish.

I BOB. Shimoliy Amerika mintaqasiga umumiy tafsif.

- 1.1. Geografik o'rni chegaralari.
- 1.2. Tabiiy sharoiti va resurslari
- 1.3. Aholisi va mehnat resurslari

II BOB. AQSH davlatini xo'jaligi rivojlanishining amaliy xususiyatlari

- 2.1. Xo'jalik tarmoqlarini rivojlanish omillari
- 2.2. Sanoat tarmoqlarini rivojlanishi
- 2.3. Qishloq xo'jaligi, ixtisoslashuvi
- 2.4. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari

X U L O S A.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

AQSH yer maydoni butun G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan katta bo'lganligi bilan Rossiyadan keyingi o'rinda turadi mamlakat 50ta shtat va Kolumbiya federal okrugidan iborat. Asosiy 48ta shtati Shimoliy Amerika materigining janubiy va markaziy qismida joylashgan.

Hozirgi kunda AQSH-Federativ Respublika. Mamlakatda 1787-yil qabul qilingan Konstitutsiyaga amal qilinadi. Davlat raxbari-Prezident. Qonun chiqaruvchi organ—kongres.

AQSH foydali qazilmalarga juda boy, ayniqsa yoq'alg'i energiya resurslari qora va rangli metallarning yirik zahiralar, tog' kimyo xom ashyosi va boshqa resurs zihalari bilan ajralib turadi. Ko'mir qazib olish bo'yicha Xitoydan keyin 2- o'rinda turadi. AQSh neft va gazning yirik zahilariga ega. Yirik neft va gaz havzalari Alyaskada mamlakat janubidagi Texas va Lyuzgana shtatlari va Tinch okean sohillari bo'yidagi Kaliforniya shtatida Aholisi.

AQSH aholisi soni jihatidan Xitoy va Hindistondan so'ng dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Aholi soni ortishida immigratsiya asosiy rol o'ynaydi. XIX asr oxirlariga qadar G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan, so'ngra Sharqiy Yevropa, keyingi yillarda Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlarida immigratsiya kuchaydi joylashgan.

I BOB. Shimoliy Amerika mintaqasiga umumiy tafsif.

1.1.Geografik o'rni chegaralari. AQSH hududining kattaligi jihatidan dunyo mamlakatlari o'rtasida 4-o'rinda (Rossiya, Kanada, Xitoydan keyin) turadi. AQSH iqtisodiy-geografik jihatdan qulay, ammo bir-biridan uzoq uch hududdan iborat.

Asosiy hudud (hududi 8.84 mln km/kv, aholisi 303.1 mln kishi) Shimoliy Amerikaning markazida joylashgan, shimolda Kanada va janubda Meksika davlatlari bilan (chegaralar tabiiy marralar-tog'lar, daryo va ko'llardan o'tadi va tinch) chegaralangan va g'arbdan Tinch okeani sharqdan Atlantika okeani suvlari uning qirg'oqlarini yuvib turadi. Qirg'oqlari tabiiy buxta, gavanlarga boy bo'lib kemachilikni rivojlantirish uchun qulay.

Alyaska shtati materikning shimoli-g'arbiy qismiga joylashgan Tinch va Shimoliy Muz okeani suvlari bilan o'ralgan va quruqlikda Kanada bilan chegaradosh (hudud 1519 km/kv, aholisi 600.0 kishi). Bering bug'ozi orqali Rossiya (Ratmanov oroli) va AQSh (Kruzenshteyn oroli) dengiz chegaralari o'tadi. Gavayi orollari (16.7 ming km/kv, aholisi 1.3 mln kishi) Tinch okeanining markaziy qismida (24 ta orol) joylashgan.

AQSH iqtisodiy-geografik o'rni qulay bo'lib, jahon mamlakatlari bilan samarali transport-iqtisodiy aloqalarni olib borish imkonini beradi.

AQSH nisbatan yosh davlat, yevropaliklar tomonidan XVI-asrdan boshlab o'zlashtirgan. Dastlab Atlantika qirg'oq bo'yida Buyuk Britaniyaning 13 ta kaloniyasi bo'lgan. 1776-yili AQSH mustaqilligi elon qilindi. XX-asrga qadar g'arbga tomon kengaydi (hududlar sotib yoki bosib olindi va o'zlashtirildi). Alyaska 1867-yili Rossiyadan

sotib olingan, Gavayi orollari esa uzoq vaqt AQSH mustamlakasi bo'lgan. O'tgan asrning 50-yillarida Alyaska va Gavayi orollari shitat maqomiga ega bo'ldi. AQSH iqtisodiy statistik nuqtai nazardan 4ta makro iqtisodiy rayonga: Shimoliy-Sharq, O'rta-G'arb, Janub va G'arbga bo'linadi. Axolini ro'yxatga olish byurosi esa AQSHni 9ta rayonlariga: Yangi Angilya, O'rta Atlantika shitalari, Janubiy Atlantika shitalari, Janubi-sharq markaziy shitalari, Janubi g'arb, tog'li shitalar, Tinch okeani shitalariga ajratadi.

AQSH federativ respublika, siyosiy-ma'muriy jihatdan 50 shitat (shitalar quyi ma'muriy okrug grafiklarga bo'linadi) va Kalumbiya federal okrugidan iborat. Amaldagi konstitutsiya 1787-yilda qabul qilingan va shu kunga qadar 26ta o'zgartirish kiritilgan, xolos. Mamlakat boshlig'i Prezident. Qonun chiqaruvchi organ- Kongress. Dunyo makromintaqalari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan Shimoliy Amerika makromintaqasi yetakchi mavqega ega. Shimoliy Amerika mamlakatlariga Meksikada shimolda joylashgan davlatlar AQSH, Kanada va Daniyaning orol mustamlakasi – Grelandiya kiradi.

Shimoliy Amerika makro mintaqasi iqtisodiy--geografik holati juda qulay bo'lib a) Yevroosiyo va Afrika mamlakatlari hamda dunyoning boshqa mintaqalari bilan qulay iqtisodiy aloqalar olib borish imkonini olib boruvchi, Atlantika va Tinch okeani suvlarining o'rab turishi; b) Shimoliy Amerika makromintaqasining chekka shimoliy g'arbida Rossiya bilan juda yaqin bo'lib, Bering bo'g'izidagi Diomid orollari orqali qisqa masofada ajralib turishi; v) Aqsh va Kanada qirg'oq bo'ylarining Atlantika va Tinch okeani halqaro savdo yo'llariga chiqish

imkoniyatlari; g) Halqaro Panama kanalining mavjudligi (Panama Kanali shimoliy Amerika makro mintaqasi siyosiy- iqtisodiy hayotida muhim;) resurs imkoniyatlari jihatlari boshqa okeanlarga ustun hisoblangan Arktika (Shimoliy Muz okeani) akvatoriyasiga bevosita tutashligi bilan harakterlanadi .

Ayni vaqta Grelandiyaning shimoliy va sharqiy qirg'oqlari kemachilik uchun noqulay bo'lib, yil bo'yi suzib yuruvchi muz bo'laklari bilan qoplangan . Faqatgina Grelandiyaning unchalik katta bo'lmagan Janubiy – G'arbiy qirg'oq bo'ylari kemachilik uchun qulay.

Shimoliy Amerika reliefi bir muncha murakkab bo'lsada , xo'jalik yuritish uchun (Ayniqsa AQShning asosiy hududi va Kandaning cho'l Provensiyalari) juda qulay. Tog' va tekisliklar materik bo'ylab Meridional joylashgandir. Makromintaqaning G'arbiy qismida Kordelera tog'lari joylashgan bo'lsa, sharqida tekisliklar va past tog'lar mavjud.

Makromintaqaning O'rtacha balandligi dengiz sathidan (G'arbda 1700 m va sharqda 200-300m) 720 m bo'lib, asosan Kanada, Lavrentiy qirlari , Janubda Markaziy tekisliklar (katta qismi AQSH hududida), g'arbda Kordilera tog'lari oldidagi Buyuk tekisliklarga tutashib ketgan, Markaziy tekisliklar sharqida Appalachi tog'lari mavjud. Kanada Arktika arxipelagining sharqiy qismi va Grelandiya sohilalri reliefi tog'lidir. Makromintaqaning janubiy - sharqida tor yo'lak hosil qilgan Atlantika bo'yi past tekisligi va Meksikaning past tekisligi Iqtisodiy jihatdan kuchli darajada o'zlashtirilganligi bilan ajralib turadi.

Kordlyera tog'lari tizimi ko'plab yoysimon tizmlardan iborat bo'lib ulardan g'arbda balandligi 1000-2000 m ichki yassi tog'lar va platolar Mintaqasi mavjud. Bu Yassi tog'liklar supasimon tekisliklar,

tizmalar va soyliklar (Katta havzadagi Ajal vodiysi dengiz sathidan balandligi 85 m) bo`lib, parallel yo`nalgan tog` zanjiridan iborat . Alyaskada to Panama bo`yniga qadar Kordelera tog` tizmalari cho`zilib yotadi (Eng baland nuqtasi Alyaska tizmasidagi Mak-Kinli cho`qqisi , 6193 m ) Tinch Okeani sohil bo`yida nihoyatda tor va uzilib-uzilib joylashgan tekisliklar mavjud. Kaliforniya yarim oroli AQSHning G`arbidagi xo`jalik jihatdan o`zlashtirish qulay bo`lgan hududdir .

Makromintaqa iqlimining tarkib topishida Shimoliy Amerika materigining shimoldan – janubga tomon cho`zilib yotganligi muhim o`rin tutadi . Kordelera tog` tizimining Meridional joylashganligi tinch okeanidan Kirib kelgan havo massalarning tasirini pasaytiradi .Shuningdek , sovuq Labrador oqimi Makromintaqaning shimoliy-sharqida havoning tez-tez sovib turishida qishning ayrim yillari juda qattiq sovuq bo`lishida asosiy sababchidir.

Shimoliy Amerika makromintaqasida arktika , subarktika , mo`tadil va subtropik iqlim mintaqalari shakillangan. Arktika iqlim mintaqasida Grenlandiya oroli , Kanada , Arktika arxipelagi va materikning Shimoliy qirg`oq bo`ylaridan to Shimoliy Qutbga qadar bo`lgan hududlar kiradi . Qish uzoq davom etadi, Alyaska va Kanada SHimoliy- G`arbida  $-64^{\circ}$ , Grenlandiya muz qoplamida (300 m balandlikda )  $-70^{\circ}$  sovuq bo`ladi. Yoz sovuq , iyulda havo harorati -0° atrofida kuzatiladi . Shimoliy Muz okeanining sharqiy orollari va Grenlandiya abadiy muzliklar bilan qoplangan .

Subarktika iqlim mintaqasiga Alyaska yarim orolida , Gudzon qo`ltig`i sohil bo`ylari , materikning Bir qismi 60 – parallel janubiga qadar va Labrador yarim orolining shimoli kiradi. Qirg`oq bo`ylarida

yanvarning o'rtacha harorati -15° , markaziy qismlarida -30° , iyulning o'rtacha harorati $+8, +12^{\circ}$. Ko'p yillik muzliklar tarqalgan, yiligi 300 mm yog'in yog'adi.

Mo'tadil iqlim mintaqasi janubda 40° Shimoliy Kenglik (G'arbiy qirg'oq bo'ylarida 45° shimoliy kenglikga qadar) cho'ziladi: Dengiz kontinental va mo'tadil kontinental iqlim oblastlariga bo'ladi. Yoz nisbatan issiq (O'rtacha $+20^{\circ}$), qish $-9-10^{\circ}$, 500mm dan 200 mm gacha (G'arbiy qirg'oq Bo'yi) yog'in yog'adi. Subtropik iqlim mintaqasi materikning Janubida 40° va 30° shimoliy kengliklarni o'z ichiga oladi. Bu iqlim mintaqasida ham o'rta dengiz kontinental va subtropik iqlim oblastlari mavjud. O'rta dengiz iqlim muhiti g'arbiy qirg'oq bo'yi hududlarida nam va iliq qish, quruq va issiq yoz qaror topishiga sabab bo'ladi. Kontinental iqlim markaziy hududlarda hukmron, yoz issiq $+25, +30^{\circ}$, yanvar oyidan -0° Atrofida bo'lib shimoldan sovuq havo massalari kirib Kelganda qisqa muddatli qattiq sovuq bo'ladi va qor yog'adi. Yillik yog'in miqdori 400-600 mm atrofida. Subtrpoik nam iqlim Florida yarim orolning shimoli, Atlantika qirg'oq bo'yida qaror topgan bo'lib, qishi iliq, yozi issiq va sernam.

Shimoliy Amerika makromintaqasi ichki suvlari boyligi bilan ajralib turad. Ichki suvlarda qishloq xo'jaligida, kemachilik va energoresurs sifatida keng foydalaniladi. Dunyodagi eng uzun daryo – Missisipi Daryosi (Miisuri bilan uzunligi 6019km) va eng katta Buyuk Ko'llar guruhi (Yuqori, Michigan, Guron av Ontario) yirik suv tizimini tashkil qiladi. Missisipi daryosi Buyuk ko'llar bilan kanallar orqali qo'shilgan. Eri va Ontario ko'llarini tutashtiruvchi Niagara daryosiga

mashhur 50 m yuqoridan otilib tushuvchi Niagara sharsharasi bor. Buyuk Ko'llar Shimoliy Lavrenti daryosi orqali Atlantika okeaniga quyiladi. Markaziy daryosi Shimoliy Muz okeaniga va Kolorado (Yirik GES Kaskadlari barpo qilingan) daryosi tinch okeaniga quyiladi Shimoliy Amerika Makromintaqasi tuproq va o'simlik olami juda xilma-xil bo'lib shimoldan janubga tomon o'zgarib boradi. O'rmonlarga juda boy, ayniqsa Kanada o'rmon resurslari dunyo ahamiyatiga molek bo'lib, asosan iga bargli daraxtlardan iborat. Yirik tog' tizmlari, o'rmonlar, Ko'llar va go'zal qirg'oq bo'ylari, turizm va dam olish maqsadlarida keng foydalaniladi. Tabiatni qo'riqlash va Atrof muhitni muhofaza qilish maqsadlarida yirik milliy parklar (AQShda 27 ta, Kanadada 19 ta) qo'riqxonalar barpo qilingan bo'lib, juda katta daromad keltiradi. Foydali qazilmalarga juda boy. Foydali qazilmalar Kanada qalqoni (Temir, titan rudalari, mis, nikel, va uran rudalari, oltin va rangli metallar), Kordelera tog'larida (oltin, Kumush, mis, rux, qo'rg'oshin, molibden, volfram, simob,) Keng tarqalgan. Missisipi daryosi quyi oqimi va Meksika qirg'oq Bo'yi hududlari Neft va tabiiy gazga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Shimoliy Amerikadagi davlat. Shimolda Kanada (Chegara uzunligi - 8893 km, Shimoliy Amerikaning Shimoliy -g'arbida joylashgan Alyaska shtatining Kanada bilan chegara uzunligi -2477 km), Janubda Meksika (3326 km) bilan chegaradosh. Mamlakat g'arbida Tinch okean, Sharqda Atlantika okeani, janubda Meksika ko'rfazi bilan tushib ketgan. Undan tashqari, AQShga Gavayi orollari, Guan orollari, Sharqiy Samoa, Virgi orollari hamda, Kuba Orolidagi Guantanamo harbiy bazasi qarashlidir. Chegaralarning umumiy uzunligi - 12248 km. Qirg'oq

bo'ylab chegara uzunlig -19924 km . AQSh maydon jihatdan dunyoda Rossiya , Kanada va Xitoydan keyingi 4 o'rinda turadi . AQSH tog'lar va bepayon tekisliklar mamlakati. Mamlakat relefining g'arbiy qismlari tog'li, sharqiy qismi esa tekisliklardan iborat , Mamlakat hududining yarmiga yaqinini tog' tizmalar, tog' tekisliklari, va Kordiler yassi tog'lar egallagan . Kordiler tog'larining yuqori cho'qqisi balandligi 4000 M bo'lgan UIT (4419 m) hisoblanadi . Sharqda Appalachi tog'lari joylashgan. Uning baland nuqtasi - Mittchil (2037 m) . Mamlakat va Shimoliy Amerikaning yuqori nuqtasi Mak-Kinli tog'i (6199 m) Alyaskada joylashgan. Qit'aning eng past joyi Kaliforniyadagi O'lim vodiysi (Dengiz sathidan – 86 m pastda) hisoblanadi . Kordiler va appalachi tog'lari orasida Markaziy va Ulug' keng ichki vodiylari hamda Meksika past tekisliklari yastanib yotibdi . Asosiy daryolari Missisipi, Missuri , Ogayo, Kolarado, Kolumbiya, va Yukon (Irmoqlari bilan birga) . Mamlakatning shimoliy sharqida Yuqori , Michigan , Guron , ERI, Ontario, ko'llaridan iborat Buyuk ko'llar tizimi mavjud . Mamlakatda ko'p so'nli muzliklar davri ko'llari bor . Yuta Shtatida joylashgan Katta Sho'r ko'l ham muzliklar davrida vujudga kelgan . AQSH quyidagi foydali qazilmalar zahirasi ega : Ko'mir , tabiiy gaz, oltin, neft , gaz, uran , mis , qorg'oshin, temir alyuminiy rudalari , fosforitlar hamda yog'och. Haydaladigan yerlar butun hududning 20 % i , O'rmonlar va dashtliklar 29 % , o'tloq va yaylovlar 26 %ni tashkil qiladi .

Iqlimi –keskin konitnental. O'simlik duyosi juda boy . Bu yerda iqlim zonalarning o'zgarishiga qarab flora ham o'zgarib boradi. AQShda moh va lishayniklardan tortib palma va sekvoyya daraxtlari

mavjud. Hayvonot olami ham turfa , u ham flora kabi iqlim zonalari o`zgarishiga qarab, o`zgarib boradi . AQSHning maydoni 9 mln 364 ming kv km . poytaxti Vashington. Hududining kataligi jihatidan Jahon mamlakatlari o`rtasida Rossiya Kanada va Xitoydan keyin 4 o`rinda turadi . AQSHning geografik o`rni qulay bol`ib ammo bir-biridan uzoq 3 hududdan iborat.

1. Asosiy hudud Shimoliy Amerikaning markazida joylashgan , Shimolda Kanada va Janubda Meksika davlatlari bilan chegaradosh .
2. Alyaska Shtati mamlakatning shimoliy g`arbida joylashgan Tinch va Shimoliy Muz okeani suvlari bilan o`ralgan . Quruqlikda Kanada bilan chegaradosh.
3. Gavaya orollari Tinch Okeanini markaziy qismida joylashgan .

AQSHning iqtisodiy geografik o`rni qulay bol`ib Jahon mamlakatlari bilan samarali transport iqtisodiy aloqalarni olib borish imkoniyati bor. AQSh fedarativ respublika siyosiy- mamuriy jihatdan 52 shtat, Kolumbiya federativ okrugidan iborat .

1.2. Tabiiy sharoiti va resurslari. Tabiiy sharoiti va resurslari xilma-xil tabiiy sharoitga ega va foydali qazilma resurslariga boy.

Mamlakatning asosiy hududi ikkita tog'li , birmuncha qirg'oqchil g'arb va tekislikdan namlikga ega.

Mamlakatning sharqida Atlantika okeani qirg'og'i bo'ylab o'rtacha balandlikdagi appalachi tog'lari markazida markaziy va Buyuk tekisliklar g'arbida yirik tog' massivi Kordilera janubiy sharqida esa Atlanta bo'yi Florida va Meksika qirg'oq bo'yi past tekisliklari joylashgan . Eng yuqori nuqtasi Mak-Kinli tog'i Alyaskadan janubga joylashgan s eng past nuqtasi ajal vodiysidir .Qoyali tog'lar , Qirg'oq bo'yi tog' tizmalari , Kaskatli va Serra- Niva tog'lari ,Yukon (Alyaska), Kolumbiya platolari Katta hafza va Kolarada platosi oralig'idagi Uyillamit va mashhur Kaliforniya vodiylari (Farg'ona vodiysiga o'xshash) xo'jalik jihatdan o'zlashtirilganligi Bilan ajralib turadi.

Kordilyera yirik iqlimiy chegara bo'lib Tinch va Atlantika havzalari uchun suv ayirg'ich rolini bajaradi . Relefning meridional yo'nalishi esa iqlimiy tuproq o'simlik sharoitlaridan tashqari muhim iqtisodiy indikatorlar - transport to'ri va aholi joylashuviga tasir ko'rsatgan .

AQSH iqlimi xilma- xil. Hududning katta qismida mo'tadil va sub arktika iqlimi , Florida Janubda tropik , Alyaskada subarktika va mo'tadil , Gavayi orollarida dengiz tropik iqlimi qaror topgan . Sovuqsiz kunlar shimoliy hududlarda 6 oy , janubda esa yil bo'yi davom etadi . Iqlim kontinentallashib , markaz va g'arbiy hududlarga tamon o'sib boradi . Yog'ingarchilik sharqda 500-2000 mm , g'arbda (Tinch okeani qirg'oq bo'yining shimoliy g'arbidan tashqarida) 200-500 mm atrofida .

Meridional yo'nalish bo'yicha tuproq osimlik olami o'zgarib boradi, asosiy o'rmon resurslari mamlakatning shimoli – g'arb va janubiy sharqida joylashgan va o'rmon sanoat majmuasi shakillangan . Suv resurslari hudud bo'yicha notekis taqsimlangan .Kanada bilan chegaradosh yirik ko'llar tizimi – Buyuk Ko'llar bo'lib , transport va gidroenergetika , baliqchilik , turizm nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega. Missisipi va uning irmoqlari (Ogayo, Tennisi, Missuri va Arkanzas) Hidroresurs va sug'orishda Kolumbiya va Kolorado daryolari gidroenergoresurs manbai sifatida muhim o'rin tutadi .

AQSH foydali qazilmalarga juda boy, ayniqsa yoq'lg'i energiya resurslari qora va rangli metallarning yirik zahiralarini , tog' kimyo xom ashyosi va boshqa resurs zihalari bilan ajralib turadi . Ko'mir qazib olish bo'yicha Xitoydan keyin 2- o'rinda turadi . AQSh neft va gazning yirik zahilariga ega. Yirik neft va gaz havzalari Alyaskada mamlakat janubidagi Texas va Lyuzgana shtatlari va Tinch okean sohillari bo'yidagi Kaliforniya shtatida joylashgan .

Yirik ko'mir havzalari (dunyo zahilarning 25 % tog'ri keladi) . Sharqiy provensiyada (Appalachi va Pensilvaniya), ichki provensiyada, (Ellinois va G'arbiy), Buyuk Tekisliklar shimolida (Fort Yunon), Qoyali tog'lar (Yunita havzasi) va Alyaskada joylashgan . Yiliga 1 mlrd tonna atrofida ko'mir qazib olinadi va dunyoda 2 o'rinda turadi .

Temir rudasi Michigan va Mennesota Shtatlarida , molibdin va volfram tog'li shtatlarda , mis , Arizona , Yuta,Nyu-Mekzika, Montata shtatlarida , rux Tennisi va Nyu-Djersi, qorg'ishin (AQSH qo'rg'oshin zahilari jihatidan Avstraliya va Kanada bilan bir xil o'rinda turadi), qo'rg'oshin - rux rudalari Aydaho, Yuta, Montata, Missuri shtatlaridadir.

Qimmatbaho (Oltin , kumush, platina) radiaktiv elementlar (uran, toriy) nodir , kamyob va sochma metallarga boy (Kordilera).

Shuningdek , fosforit Florida, Shimoliy Karolina, Aydaxo shtatlarida , oltingugurt Meksika bo`yi pasttekisligidan qazib olinadi . Qurilish materallariga boy . Ayni vaqtda nikel, kobali, kaliyli, va kaliyli tuzlarni import qiladi. Mamlakatda tabiatni saqlash, qo`riqlash va qayta tiklash sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda . Muhofaza qilinadigan tabiat obyektlari, orasida Yellouston, Yosemite, Sekvoye, Grant-Kanon milliy bog`lari , Mamont (Mamont g`ori) , Karlsbad tog`lari va boshqa mo`jizaviy tog` , tekislik, past tekislik landshaftlari , daryo vodiylari , ko`l va sharsharalar (Niagara) , o`simlik va hayvonot olami , sihat salomatlikni saqlash resurslari (davolovchi) turizimni va turizm industriyasini rivojlanishiga kuchli tasir etmoqda .

1.3. Aholisi va mehnat resurslari. Aholisi . AQSH aholisi soni jihatidan Xitoy va Hindistondan so`ng dunyoda uchinchi o`rinda turadi. Aholi soni ortishida immigratsiya asosiy rol o`ynaydi. XIX asr oxirlariga qadar G`arbiy Yevropa mamlakatlaridan, so`ngra Sharqiy Yevropa, keyingi yillarda Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlarida immigratsiya kuchaydi .

Aholining o`rtacha o`sish suratlari 0.5-0.6 % . Bashoratlarga ko`ra mamlakat aholisi 2025 yilda mamlakat aholisi 355.7 mln . kishini va 2050 yilda 438.2 mln kishiga ortishi mumkin . Yillik tug`ilish kayfisenti 14/1000 , o`lim kayfisenti 8/1000 (2008 y) , o`rtacha umr k`orish darajasi erkaklarda 75 va ayollarda 81 yosh . Mamlakat aholisining 151.5 mln. Qismi mehnatga yaroqlidir .Aholining 75 % i kelib chiqishi yevropaliklardan iborat bo`lib (Buyuk Britaniya , Fransiya , Irlandiya, Italiya , Polsha , Ukraina, Belarus, Rossiya va boshq.) , bir nechta asosiy etnik guruhlardan iborat. Kelib chiqishi nemislardan iborat bo`lgan Amerikaliklar eng ko`p sonli bo`lib AQSH aholisining 20-25 % (60 mln . Kishi ) tashkil qilsa ikkinchi o`rinda turadi.

Aholisi AQSHning hoz. aholisi uch asosiy etnik tarkibi qismdan:AQSH amerikaliklari , Muhojirlar va tub joy aholisidan iborat . AQSH aholisining 82.8 %ini asli kelib chiqishi yevropaliklar , 12.6 % ni afrikaliklar ,3.6 5ni osiyoliklar , 1 % indeyslar , eskimoslar , aleutlar tashkil etadi . Aholining 80 % shaharlarda yashaydi . AQSH amerikaliklar millat sifatida asosan 18- a. ning 2- yarmida Yevropaning turli mamlakatlarida kelgan muxojirlarning aralashib ketishi natijasida tarkib topgan . Afroamerikaliklar ("qoralar " deb ataluvchi negirlar) AQSh amerikaliklarning irqiy - etnografic guruhi bo`lib ular 17-19-a.

larda mamlakatga keltirilgan afrikalik qullarning avlodlaridir . Afroamerikaliklar asrlar davomida ayirmachilik va kamsituvga duchor qilinishiga qaramay, afrikaliklarning oq tanlilar bilan jismoniy aralashivu sodir bo`lgan duragaylar afroamerikaliklar umumiy sonining anchagina qismini tashkil etadi. AQShda meksikanlar ,italyanlar, nemislar, fransuzlar, shvedlar, norveglar, gollandlar, yaponlar , polyaklar, xitoylar va boshqa xalqlar ham yashaydi . AQSHda 5 ming yaqin o`zbek istiqomat qiladi. Ular asosan Nyu-York, Vashigton, Nyu-Jersi shitatlarida Filadelfiya sh.da hamda mamlakatning boshqa shtat va shaharlarida yashaydi . Ular turli kasb hamda tijorat ishlari bilan shug`ullanadilar . Hozirda amerikaliklar o`zbeklarning ota-bolalari 1917 yilgi oktabr to`ntarilishidan keyin bolsheviklar tazyiqidan qochib, avval Avg`oniston va Xitoyga o`tib ketganlar . 1950 yiillarda esa , Pokiston ,Saudiya Arabiston ,Turkiya orqali ,AQShga borib qolishgan. 2-jahon urishi davrida turli yo`llar bilan u yerga borib qolgan o`zbeklar ham uchraydi . AQSh aholisining zichligi - 1 km . kv ga 27.2 kishi Rasiy tili - ingliz tili . Dindorlar asosan protestaktlar va katoliklardir . Yirik shaharlari: Nyu- York, s Chikago, Los-Anjelis, Fladelfiya, Xyuston , Dedroyt , San-Fransisko , Vashington ,Boston, Dallas, Klivlend , Baltimor (yana q. amerikaliklar)

II BOB.AQSH davlatini xo'jaligi rivojlanishining amaliy xususiyatlari

2.1. Xo'jalik tarmoqlarini rivojlanish omillari. Xo'jaligi. AQSH - dunyoda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakat. Yalpi milliy mahsulot yengil sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi tovar va capital eksport qilish, ishlab chiqarishning to'planish va markazlashuvi, ilmiy tatqiqotlarga sarf- xarajati va shimoliy kenglik bo'yicha birinchi o'rinda turadi . Butun dunyodagi sanoat ishlab chiqarishnign ishlab chiqarishning uchdan bir qismi AQSH ulishiga to'g'ri keladi. Xalqaro boshqaruv taraqqiyoti inti o'tkazgan tadqiqot malumotlariga ko'ra 1994-1996 - yillarda iqtisofdiy rivojlanish nuqtai nazaridan yetakchi davalatlar o'rtasida ham AQSH birinchi o'rinda turibdi.

Sanoati . AQSH milliy daromadining 66.3 % i sanoatda hosil qilinadi. Sanoat ishlab chiqarishning yarmiga yaqini sanoat korporatsiyalari qo'lida . Ular orasida : "Ekson" , "Mobil", "Teksako", "Shevron ", "Standart oyl of Kaliforniya ", "Standart oyl of Indiana " , "Galf oyl" neft , "Jeneral Motors" , "Ford motor" , "Kraysler" avtomabil , "IBM" , "Jeneral elektrek" , "ITT" elektr mashinasozligi , "Yu. S. Stil" po'lat qo'yish, " Dyufon de Nemur " kimyo va korparatsiyalar bor . Harbiy sanoat koorparatsiyalari orasida, "Jeneral daynemiks" , "Lokxid" , "Makdonnel duglas", "Grumman", "X'yuz eyrkraft" yetakchi o'rinni egallaydi . Avia - raketa – kosmik , energomashinasozlik elektron shuningdedk neft kimyosi atom va energetika sanoati g'oyat tez suratlar bilan tarqqiy etmoqda . Elektr energiyasining 74 %i issiqlik elektr stasiyalarida 12.1% GES larda , 14.1% AES larda hosil qilinadi .

Neft (Meksika qo'ltig'i sohilidagi Galf , Kaliforniya , Aliyaska), tabiiy gaz va oltingugurt (Galf), ko'mir (Appalachi va Markaziy havzalar) temir rudalari (Yuqori ko'l atrofi), fosforit (Florida) uran rangli metallar, kaliy tuzlari va sh.k. qazib olinadi . Qora metallurgiyaning asosiy markazlari – Chikago, Pittsburg, Detroyt, Klevlent, Buffalo, Balimor, Filadelfiya. Alyminiy sanoati Galf atrofida hamda Kolumbiya va Tennessi daryolari havzlarida joylashgan. Sanoatning yetakchi tarmog'i – mashinasozlik va metallsozlik. Sanoat va energetika asbob – uskunalari, qurilish va qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqarish asosan shimoli- sharqiy shtatlarida , elektrotexnika va aloqa vositalari ishlab chiqarish shimoli – sharq va Kaliforniyada yo'lga qo'yilgan. Avtomobilsozlikning bosh markazi Detroyt shtati Samolyotlar , raketa va kosmik texnika ishlab chiqaruvchi 3- dlar asosan Los-Anjelis , San-Diego , Boston , Nyu- York , Filadelfiya, Baltemor, Buffalo, Dallas, Atlanta va boshqa shaharlarda joylashgan . Kemasozlik (asosan harbiy kemasozlik) AQSH shimoli – sharqiy sohalik portlarida rivojlangan. Atom sanoatinig sosiy markazlari - Ok –Rej, Padyuka , Portsymbut, Eyken, Xandfort. Kimyo sanoati ximikatlar , plastmassalar , kimyoviy tola , sintetik kauchuk , loklar, kir yuvish vositalari , bo'yoqlar madanli o'g'itlarni ishlab chiqaradi. Mazkur tarmoq korxonalar asosan shimoliy sharqiy shtatlarda Meksika qo'ltig'i sohilidagi shaharlarda joylashgan . Harbiy sanoat asosan Kaliforniya , Nyu-York , Texas, Konnektikut, Missuri , Massachusets, Virginiya shtatlarida . AQSH ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi, iqtisodiyotining tarkibi, milliy mahsulotlarining raqobatbardoshligi, ilmiy – texnik va intellektual salohiyatga egaligi hamda hozirgi vaqtdagi o'ziga xos

siyoasati bilan halqaro munosabtlar va jahon iqtisodiyoti yo'nalishlarini belgilashda yetakchi rol o'ynaydi. Iqtisodiy rivojlanishning Amerika modeli ko'pgina iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar uchun andoza rolini o'ynagan bo'lsa, uning modifikatsiyasi, yani o'zgargan shakllari yangi industrial mamlakatlarning istiqbolli rivojlanishida keng qo'llanildi.

AQSH—dunyodagi eng yirik sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi mamlakat. Dunyodagi eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarishning 45%i to'g'ri keladi va dunyo Ya I M 25%ini beradi.

AQSH iqtisodiyotidagi halqaro iqtisoslashuv elektrotexnika va elektronika sanoati (ayniqsa, super EHM), aviakosmik, harbiy atom sanoati, biotexnologiya va boshqalardir. Iqtisodiyotda tog'-kon sanoati, qora metallurgiya, to'qimachilik va tikuvchilik hissasi qisqarib, kimyo, mashinasozlik va metalni qayta ishlash tarmoqlari hissasi tobora ortib bormoqda. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ilmiy-tatqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga bo'lgan xarajat, ilmiy xodimlar va muhandislar soni jihatdan oldinda turadi.

Natijada, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab mamlakat iqtisodiyoti resurslarini tejoychi yuksak texnologik bosqichga kirdi. Ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi, samarali bandlik, inflyatsiyaning past darajasi va federal byudjet holati yaxshilandi. Amerika yuqori darajadgi biznes-elitasining isloh etilishi ("Boing" korporatsiyasining "Mak Donnel Duglas" korporatsiyalari bilan "Lokxit"ning "Norton Grueten" bilan qo'shilishi va boshqalar) aviakosmik va mudofa sanoatida sezilarli o'zgarishlar olib keladi.

Ammo AQSH iqtisodiyotidagi eng keskin muammo--- mamlakat ichki qarzining o'sishi (300 mlrd \$) va bandlik darajasi bo'lib qolmoqda. Shuningdek, 2008-yildan boshlangan molyaviy inqiroz mamlakat iqtisodiyotida pasayish jarayonlarini boshab berdi. Shunga qaramay XX-asr oxiri --- XXI-asr boshlarida AQSH xo'jaligi YaIM tarmoq tarkibidagi o'zgarish moddiy ishlab chiqarish ulishining qisqarishi va noishlab chiqarish sohalari (xizmatlar sohalari) ulishining barqaror ortib borishidir.

2.2.Sanoat tarmoqlarini rivojlanishi. Sanoat—AQSH

iqtisodiyotining o'zak tarmog'i. Ayni vaqtda AQSH iqtisodiyotining tarmoq tarkibi va yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi tarkibi g'oyat noyoblighi bilan ajralib turadi. Iqtisodiyot tarmoq tarkibida xizmatlar sohasi 72.5%ni, ishlab chiqarish 26.2%ni va qishloq xo'jaligi 1.4%ni tashkil qiladi. Iqtisodiyotdagi bunday xususiyatni Niderlandiya (78%) va Isroilda (81%) uchratish mumkun. AQSH sanoati uch ijtimoiy ishlab chiqarish: ishlov beruvchi sanoat, qazib beruvchi sanoat va elektroenergetikadan iborat. Sanoat mahsulati ishlab chiqarishda ishlov beruvchi sohaning ulushi 80.4%, elektroenergetika ulushi 13%, qazib beruvchi sanoat ulushi esa 6.6%ni tashkil qiladi. Mamlakatda 21mln turli ferma va kompaniyalar bo'lib aloqaning pochta xizmatidan tashqarisi hududiy mulkga asoslangan. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligida investitsiya AQSH sanoatini harakatlantiruvchi kuchi bo'ldi. Investitsiyaning 50% komponentlashtirish va axborot vositlarini sotib olishga yo'naltirildi. AQSHda ananaviy (tog'-kon, metallurgiya) sanoat tizimida o'ta zamonaviy (aerokosmik, mikroelektronika, yangi materiallar ishlab chiqarish va boshqalar) tarmoqlar rivojlangan.

Telekommunikatsiya, transport vositalari, shuningdek, o'ta zamonaviy, uzoq muddatda foydalanuvchi istemol tovarlari ishlab chiqarishga alohida etibor berilmoqda. AQSH sanoatida yuqori foyda elektronika va elektrotexnika tarmog'iga to'g'ri keladi. Ko'ngilochar industriya—kino, musiqa, adabiyot, kompyuter dasturlari, video-audio materiallar ishlab chiqarish yuqori darajada rivojlangan. 2000 yildan boshlab Gollivud filmlarini sotishdan olingan daromad AQSH harbiy sanoati

majmuasi daromadidan yuqori buldi. Sanoatda ilmtalab sohalar— mikroelektronika,lazer texnikasi , oldindan berilgan hossalar asosida prinsipial yangi materiallar ishlab chiqarish , gen enjenerligi va biotexnologiya , robot va roboto- texnika, biqiq avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, avtomatlashtirish tizmlarni lohiyalashtirish , kosmik priborsozlik va boshqalar jadal rivojlanmoqda . Robot ishlab chiqarishning o`rtacha yillik o`sinh suratlari 40 % dan ortiq . Resurslarni tejash texnologiyasiga o`tish YIM birligiga nisbatan energiya talablilikni 25 % va material talablilikni qariyb 20 % qisqarish imkonini beradi .

AQSH yirik yo`qilg`i - energetika sanoatiga ega bo`lib uning asosini k`omir , neft va tabiiy gaz , uran (90%) va gidroresurslar tashkil qiladi . Ko`mir (yiliga 930 mln tonna) asosan Appalachi , Markaziy havza va tog`li shtatlardan qazib olinadi , deyarli IESlarda foydalaniladi va eksportga chiqariladi.

AQSH razvetka qilingan neft zahiralari bo`yicha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o`rtasida birinchi o`rinda turadi . Yiliga 380 mln tonnadan ortiq neft qazib chiqarilsada , ichki ehtiyojni qondira olmaydi . Kanada , Veneusuella va Fors ko`frazi mamlakatlardan import qiladi . Yiliga 540 mlrd metr kub tabiiy gaz qazib chiqarishiga qaramay , Kanadadan gaz import qiladi . s Yirik neft monopoliyalari : “Eksson”, “Teksako”, “Galor OYL” va boshqalar .

AQSHda yiliga 4.3 trln kvts (2007y) elektr energiyasi hosil qilinadi . Mamlakat yoqilg`i - energetika balansida IES (70 %), GES va AES (28%) va alternativ energomanbalar hissasiga 2 % ( geo IES, ko`mir Va shamol energiyasi) tog`ri keladi . AESlarda 110 ta nergoblok

mavjud. Qora metallurgiya sanoati (yilligi 90 mln tonna po'lat eritiladi .)
Garchi o'zak tarmoq bo'lganligiga qaramay , bugungi kunda bir qator
muammalarga ega . Yirik qora metallurgiya markazlari : Pittsburg,
Buyuk Ko'llar rayoni , Atlantika qirg'oq Bo'yi (import ruda asosida),
Dallas va Xyustondir . qora metal eritishni nazorat qiluvchi yirik
kompaniya "Yunayted Steyts Stil Korporeshin " va boshqalar .

AQSH rangli metallurgiyaning asosiy turlarni ishlab chiqaruvchi
mamlakatdir . Mis , rux, qo'rg'oshin eritish Montata , Yuta , Aydaxo,
Arizona , shtatlarida , Tinch okean qirg'oq bo'yinining shimoli - g'arbi,
Atlantika qirg'oq boyi rayonlaridir . Alyuminiy (sanoati yilliga 3 mln
tonna alyuminiy eritadi va dunyoda birinchi o'rinda turadi)
rivojlangan .

Avtomobilsozlikda "Katta uchlik" korporatsiyalari mamlakat
ichki ehtiyojining 75 %ni Yapon avtomobil zavodlari esa 25 %ni
qondiradi . Detroit shahri "avtomobilsozlik poytaxti " dir va yana 20 ta
shtatda avtomobilsozlik korxonalri mavjud . Yiliga 8 mln dona turli
marklarga yengil va yuk avtobillari ishlab chiqariladi .

2.3. Qishloq xo'jaligi, ixtisoslashuvi. AQSh qishloq xo'jligi yuqori darajada intensivlashgan. Bu tarmoqda 22.8 mln kishi (18 % ishlovchilar) band. Yirik fermerlar ko'paymoqda . 500 ming dan dollar daromad oluvchi 2 % fermer xo'jaliklar 13 % ishlanadigan yerga egalik qilganlari holda , 40 % mahsulot ishlab chiqarilmoqda .

AQSH agrosanoat majmuasi qishloq xo'jaligi, transport, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari, moliya-bank tizimi va ilmning samarali uyg'unlashgan asosidagi agrobiznes darajasiga yetdi.

AQSH jahon bozoriga 50 % makkajo'xori , 20% mol va qo'y g'oshti , 1/3 bug'doy yoki jami qishloq xo'jaligi mahsulatlarning 15 %ni chiqaradi . Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi yirik ko'lami va xilma- xil mahsulotlar ishlab chiqarish mehnat unumdorligining yuqoriligi va texnika bilan qurollanganlik darajasi , yuqori Tovar xo'jaliklarning ixtisoslashuvi va koperatsiyasi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turadi.

Haydaladigan yerlar barcha yerlarning 20 % , o'rmonlar va to'qayzorlarning 29 %ni , o'tloq va yaylovlarning esa 26 % ni tashkil etadi . Yer fondining katta qismi (hududining 2/3) qismi xususiy yer egaliga , qolgani davlatda qarashlidir .Xususiy yerlarning 62 %i fermer xo'jaliklarga qarashli bo'lib, 60 % fermerlar yeri to'la xususiy mulk bo'lsa qolganlari qisman egalik qiladi yoki ijarachidir . Fermerlar yerlarining 1/3 qismigina to'la shaxsiy yer egaligiga qarashlidir .

Qishloq xo'jaligida yirik xo'jaliklarning roli ortib bormoqda. Bunday yirik xo'jaliklarga fermer maydonlarining 50 %i qarashli bo'lib, qishloq xo'jaligidagi daromatning 50 %ga yaqini tog'ri keladi .

AQSH g'arbida esa o'rtacha fermer xo'jaliklari (180 ga) kengaymoqda. Ammo yirik xo'jaliklar tomonidan kichik va o'rta xo'jaliklarni siqib chiqarish jarayonlari ham kuzatiladi .

Qishloq xo'jaligi tarkibida chorvachilik (Qishloq xo'jaligi mahsulotining qiymatining 52 %) ustun rivojlangan . Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 52 % yaylovlarda iborat (239 mln ga) va dunyo Avstraliya va Xitoydan so'ng uchinchi o'rinda turadi .

Ziroalchilikda yirik don xo'jaliklari katta o'rin tutatdi . (Yalpi hosil bo'cha Xitoy dan ikkinchi o'rinda turadi). Ayova va Illinois shtatlarida makka jo'xori , Buyuk tekisliklarning g'arbiy rayonlarida bug'doy yetishtirish yetakchi o'rin tutadi . Ekish va hosilni yig'ishda iqtisoslashgan maxsus qishloq xo'jaligi fermalari ishtiroki tobora oshib bormoqda.

AQShda agroiklimiy xususiyatlar hamda istemol mintaqalari ta'sirida quyidagi iqtisoslashgan qishloq xo'jaligi mashinalari shayllangan .

- sut chorvachiligi mintaqasi- mamlakatning shimoli va shimoli - sharqi , Buyuk Ko'llar rayoni ;
- makkajo'xori mintaqasi – go'sht chorvachiligi bilan uyg'unlashgan holda Buyuk Ko'llar janubida ;
- chorvachilik- donchilik mintaqasi - asosan makkajo'xori mintaqasining janubida ;
- bug'doykor mintaqasi – Preriya , mamlakatning shimoli – g'arbi Kolumbiya platosida;

- paxtakor mintaq - shimolda chorvachilik – donchlik va bug`doykor mintaqalari orali`gi , janubda tor polosada Meksika qo`ltig`idan Atlantika okeaniga qadar ;
- yaylov chorvachiligi mintqasi - g`arb tog`li shtatlarini o`z tarkibiga oladi va eng katta hududni egallaydi ;
- sabzavotchilik mintaqasi – Atlantika sohil bo`yidagi tor polosa ;
- nam Suptropik mintaq - Meksika ko`rfazi va Floridani o`z tarkibiga oladi va sitrus mevalar , sholi, tamaki , shakar qamish va boshqa qishloq xo`jaligi ekinlari yetishtiriladi ;
- quruq suptropik mintaqasi - Tinch okeani qitg`oq bo`yining janubi va Kaliforniya vodiysini o`z ichiga oladi hamda sitrus mevalar, uzumchilik va bog`dorchilik , sabzavot – poliz – kartoshkachilik rivojlangan.

2.4. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Ichki yuk tashishda transport yo'llari, avtomobil transporti, ichki suv transporti, dengiz transporti, havo transporti, gaz va neft quvurlari muhim ahamiyatga ega. Asosiy dengiz portlari: Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Yangi Orlean, Hyuston, San-Fransisko, Buyuk ko'llarda --Chikago, Dulut. Aviatsia qatnovi asosiy uzellari—Nyu-York, Chikago, Atlanta, Los-Anjeles, Mayami, Dallas.

Tashqi savdosi dunyoning turli mamlakatlariga bevosita mablag' sarflash ko'payib bormoqda. Eksportda ham importda ham tayyor mahsulot ustun. AQSHdan sanoat va energetika mashina—uskunalari transport vositalari, kimyo tovarlari, to'qimachilik va qog'oz maxsulotlari, ko'mir, oziq -ovqat, va yembop don, soya, paxta, tamaki va boshqa mahsulotlar chiqariladi; neft va neft mahsulotlari, ruda va metal, sanoat mashina-uskunolari, uzoq muddat foydalaniladigan ro'zg'or anjomlari, kiyim-kechak, poyafzal, yog'och, qog'oz, baliq, go'sht, qand-shakar, kofe va boshqalar keltiriladi. Savdo-sotiqdagi asosiy mijozlari ---Kanada, Yaponiya, Meksika, G'arbiy Yevropa mamlakatlari. Pul birligi—Amerika dollari.

AQSHda barcha transport turlari rivojlangan (Alyaskadan tashqari). Dunyo transport tarkibida AQSH transporti umum transport ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi. Dunyo aloqa yo'llarining 1/3 qismi, yuk va yo'lovchi aylanmasining 30%i hamda AQSH transport tizimiga iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar yuk tortuvchi, 30% yuk ko'taruvchi (30%) transport vositalari to'g'ri keladi. Ayni vaqtda AQSH transport to'ri va tizimi mamlakat hududining kattaligi, aholi joylashishi va suburbanizasiya jarayonlari, ishlab

chiqarish markazlari va istemol rayonlari, sanoat va xo'jaligining ixtisoslashuvi bilan uyg'unlikda rivojlangan. AQSH yuk aylanmasida barcha transport turlari deyarli bir xil o'rin tutadi (temir yo'l—27%, avtomobil—24%, suv—27%, quvur transporti—21%). Ayni vaqtda avtomobil quvur va havo transportining hissasi sezilarli ravishda ortib bormoqda.

Temir yo'llarning umumiy uzunligi 2266ming km. bo'lib, ularning 50%i iqtisodiy rivojlangan shimol shtatlariga to'g'ri keladi. Temir yollarning asosiy qismi transkontenental magistral yo'llar hisoblanib, Atlantika okeanidan Tinch okeani qirg'oq bo'ylari tutashtiradi. Shuningdek, kenglik va meridional yo'nalishdagi yo'llar ham mavjud. Bugungi kunda temir yo'llarning texnik jihatdan qurollanish jarayoni tezlashdi va ichki kontener yuk tashishlari temir yo'l va avtomobil va temir yo'l ---suv transporti aralash tizimi kengayib bomoqda. Temir yo'l tugunlari Chikago, Solt-Leyk-Siti, Nyu-York, Detroyt va boshqa shaharda vujudga kelgan.

AQSH avtomobil transporti zamonaviy transport vositalari va yo'llariga, yuqori darajada xizmat ko'rsatuvchi servis tizimga ega. Avtomobil parki 200mln. Avtomashinadan iborat bo'lib, buning $\frac{3}{4}$ qismi yengil va $\frac{1}{4}$ qismi yuk avtomobillaridir. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 6431ming km: shundan qattiq qoplamga ega bo'lgan yo'llar 5400ming km, takomillashgan qoplamga ega bo'lgan yo'llar 3500ming km. (yuqori tezlikda harakatlanish imkoniyatini beruvchi avtomobil trassalar uzunligi 88641 km). Avtomobil yo'llarining sifat jihatdan yaxshilanishi davom etmoqda. Avtomobil yo'llari okeandan-okeanga, kenglik va meridional yo'nalishga ega. Ammo yirik sanoat

markazlari, megalopolislarda avtomobil oqimining "tiqini" kuchayib borishi, atmosferani ifloslantirishdan tashqari asabga teguvchi "shovqin zo'riqishi"dan iborat "psixoxayajon" jarayonini yuzaga keltiradi.

AQSH dastlabgi quvur transporti rivojlangan mamlakatlardan biri. Quvur transportining umumiy uzunligi 730ming km (shundan magestral neft quvurlari 275ming km)bo'lib, mamlakatdagi 75% neftni haydaydi. Aynan neft magistrallari neft qazib chiqaruvchi rayonlardan istemol rayonlariga (Texas shtatidan AQSHning barcha shtatlariga, Alyaskadan Tinch okean qirg'oq bo'yiga) yo'nalgan.

Ichki suv transportining rivojlanishi yil bo'yi davom etadigan navigatsiya bilan bog'liq bo'lib, AQSH yuk aylanmasining 11.5%i to'g'ri keladi. Suv yo'llarining umumiy uzunligi 41ming km (Missisipi daryosi havzasi, Buyuk Ko'llar). Yirik portlar: Chikago, Dulut, Buffallo, Detroyt, Klivlend, Tolido va boshqalar. AQSH halqaro yuk aylanmasining 75%i dengiz transportiga to'g'ri keladi. Mamlakatda 100ga yaqin dengiz portlari (portlarning ko'pchiligi chuqur emas va yirik ixtisoslashgan tankerlar uchun noqulay bo'lsada, dunyodagi yirik kontener tashish flotiga va markazlariga ega) bo'lib, shundan 18tasining yuk aylanmasi 20mln. T dan ortadi. Bu portlarda barcha yuklarning 80%i tushiriladi. Dengizda yuk tashish bo'yicha AQSH dunyoda Yaponiyadan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. AQSH ko'proq "qulay bayroq" lar mamlakatlar orqali kabotaj (Panama kanali, Meksika ko'rfazi, Atlantika va tinch okeani qirg'oq bo'ylari) aloqalaridan foydalaniladi. Yirik portlari: Nyu-York, Yangi Orlean, (yuk aylanmasida 1-o'rinda) San-Fransisko, Los-Anjeles, Filadelfiya, Baton-Ruj, Korpus-Kristi, Sietil. Havo transporti ichki va halqaro

yo'lovchi tashishda katta o'rin tutadi. Dunyodagi eng yirik fuqaro aviatsiasi parkiga ega. Havo liniyalari Shimoli-Sharq-Florida, O'rta G'arb-Tinch okeani qirg'oq bo'ylari yo'nalishlarida to'plangan. Yirik aeroportlar: Nyu-York, Chikago, Atlanta, Los-Anjeles, Mayami, Dallas va boshqalar. Buyuk ko'llarda --Chikago, Dulut. Aviatsia qatnovi asosiy uzellari—Nyu-York, Chikago, Atlanta, Los-Anjeles, Mayami, Dallas va boshqalar.

XULOSA

Maydoni—9373000 kvadrat kilometr. Aholisi — 281421900 kishi. Amerika Qo'shma Shtatlari — g'arbiy yarim shardagi eng katta mamlakat. Hududin- ing deyarli hammasi Shimoliy Amerikada joylashgan. AQSHning sharqiy qirg'og'ini Atlantika okeani, g'arbiy qirg'og'ini Tinch okean suvlari yuvib turadi.

AQSHning iqlimi asosan mo'tadil va subtropik. Haqiqiy tropiklar ham bor — bular Tinch okeandagi Gavayi orollari bo'lib, ular AQSH shtatlaridan biri hisoblanadi. Shimoldagi Alyaska shtatida esa qishda Arktikasovuqlaribo'ladi. Mamlakat markaziy qismidagi tekisliklar g'arbda tepalari qor bilan qoplangan ulug'vor Qoyali tog'larga, sharqda esa uncha baland bo'lmagan Appalachi tog'lariga borib tutashgan.

Amerikadagi tog'lar, ayniqsa Appalachi tog'lari bag'ri ko'mir, neft, tabiiy gaz, temir rudasi, rangli metall rudalari va boshqa foydali qazilmalarga boy. Amerikaning eng yirik daryolari — Missisipi va uning irmog'i Missuri. Yevropaliklar Shimoliy Amerikaga 16-asrda Kolumb Amerikani kashf qilgandan keyin ko'chib bora boshladilar. Yevropaliklar Amerika qit'asining tub aholisi — indeyeslarni shafqatsiz qira boshlaganlar. Tirik qolgan indeyeslar unumsiz cho'l yerlarga — rezervatsiyalarga surib chiqarilgan. AQSHda Afrikadan bir vaqtlar zo'rlik bilan olib borilgan qullarning avlodlari bo'lgan qora tanli Amerikaliklar hamyashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoiti uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent "O'zbekiston" 2009 y.
2. I.A.Karimov, «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» Toshkent «O'zbekiston» 1995 yil.
3. I.A.Karimov «O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida», «Xafvsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». Toshkent. «O'zbekiston» 1997 yil.
4. Soliyev A, Maxammadaliyev R, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. T, O'zMU. 2005 yil.
5. Soliyev A, Tojiyeva Z. Iqtisodiy va social geografiya asoslari. T. 2001y.
6. Ergashev A. va boshq. Jaxon mamlakatlari. Toshkent 2006 yil.
7. M.Bo'riyeva – Demografiya asoslari.
8. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. Olimjon Abdullayev. Toshkent "Yangi asr avlodi"-2009 yil.
9. Toirov I., Fayzullayev M. Jahon ijtimoiy – iqtisodiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. Qarshi-2010 yil.
- 10.X.Abdunazarov. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. II-qism. (Dunyoning regional tavsifi). Ma'ruzalar matni. Termiz 2007 йил.
- 11.Jahon mamlakatlari.
- 12.Jahon mamlakatlari. Spravochnik. T.O'zbekiston. 1990 y. 82 ta avtor.
- 13."Atlas mira" Strani mira v kartax i sifrax. M. "Ast-Press" 2000 g.
- 14.Ahmedov B. Lotin Amerikasi. T.O'z dav nashr. 1963.
- 15.Atlas "Ekonomicheskaya i sosialnaya geografiya mira" M. 2006 "Drafa"
- 16.Atlas "Ekonomicheskaya i sosialnaya geografiya mira" M. 2000"Ast-Press"
- 17.Internet materiallari. www.google.uz.
- 18.Internet materiallari. www.ziyonet.uz.

AQSH ning ma'muriy – hududiy bo'linishi

T/r	Shtatlar	Maydoni, ming km ²	Ma'muriy markazi
1	Ayhado	216,4	Boyse
2	Ayova	146,8	De-Moyn
3	Alabama	133,7	Montgomeri
4	Alyaska	1518,8	Juno
5	Arizona	295	Finiks
6	Arkanzas	137,5	Litl-Pok
7	Bayoming	253,6	Shayenn
8	Vashington	176,6	Olimpia
9	Vermont	24,9	Montpilier
10	Verginiya	104,7	Richmond
11	Viskonsiy	145,4	Madison
12	Gavayi	16,7	Gonolulu
13	Delaver	5,3	Dover
14	Jan. Dakota	199,5	Piir
15	Jan. Korolina	80,4	Kolumbia
16	Jorjiy	152,5	Atlanta
17	Illinyus	146,1	Springfild
18	India	94,1	Indianapolis
19	Kaliforniya	411,0	Sakramento
20	Kanzas	213,1	Topika
21	Kentukki	104,6	Frankford
22	Kolorado	269,9	Dervin
23	Konnektikut	12,9	Xartford
24	Luiziana	125,7	Baton-Ruj
25	Massachusets	21,5	Boston

AQsh ning ma`muriy-hududiy bo`linishi

T/r	Shtatlar	Maydoni, ming km ²	Ma`muriy markazi
26	Men	86,0	Ogasta
27	Merilend	27,48	Annapolis
28	Minnesota	217,8	Sent-pol
29	Missisipi	6,0	Jekson
30	Missuri	180,4	Jefferson-Site
31	Michigan	150,8	Lansing
32	Montana	381,1	Gelena
33	Nebraska	200,0	Linkolin
34	Nevada	286,3	Karson-Site
35	Nyu-Xempshir	24,2	Konkord
36	Nyu-Jersi	20,3	Trenton
37	Nyu-York	128,4	Olbine
38	Nyu-Meksiko	315,1	Santa-Fe
39	Ogayo	106,7	Kolumbus
40	Oklaxoma	181,1	Oklaxoma-Seti
41	Oregon	251,2	Seylem
42	Pensilvaniya	117,4	Garrisberg
43	Rod-Aylens	3,2	Providens
44	Tenessi	109,4	Nashvill
45	Texas	692,1	Ostin
46	Florida	151,7	Tallaxasi
47	Shim.Dakota	183,1	Bismark
48	Shim. Karolina	136,5	Poli
49	G`arbiy Verginiya	219,9	Solt-Leyk-Seti
50	Kolumbiya Federal okrugi	0,2	Vashington

AMERIKA QO`SHMA SHTATLARI

Mamlakatlar	Qora metallurgiya	Rangli metallurgiya	Mashinasozlik va metalni	Elektroni ka	Avtomobilsozlik	Aviasozlik	Kemasozlik	Te mir y o` mashinasozligi	Q/x mashinasozligi	Stanoksozlik	Optik mexanika	Kimyo	Neftni qayta ishlash	Yengil sanoat	Oziq-ovqat sanoti	Tamaki	Poligrafiya
San Fransisko		+	+			+	+					+	+	+	+		
Los Anjels		+	+				+	+				+	+	+	+		
Dallas			+	+		+							+	+	+		
Yangi Orlen			+	+			+					+	+		+		
Nyu York		+	+	+		+				+	+	+		+	+	+	+
Boston			+			+	+					+	+	+	+		+
Butala	+		+	+	+		+					+		+	+	+	
Xyuston	+		+	+								+	+		+		
Sietl		+	+	+			+								+		
Chikago	+		+		+	+						+	+		+	+	+